
Obodlik – obod qalblardan nishona

Obodlik bor joyda, fayzu baraka, rivojlanish bo'ladi. Shu kunlarda tumanimizdagi mahalla fuqarolar yig'inilarida keng qamrovli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu yangilanishlar esa hudud chiroyiga yanada chiroy qo'shib, mahallalar butunlay o'zgacha qiyofa kasb etmoqda.

Albatta bunday ezgu, xayrli ishlarga ko'plab yaxshi insonlar va oilalarning zahmatli mehnati singgan. Mahallalarda yashovchi fuqarolar o'zlari yashab turgan ko'cha va hududlarini obodonlashtirish, xonadonlarda yuksak sanitariya madaniyatini qaror toptirishga harakat qilishmoqda. Natijada mahallalarda namunaviy xonadon va ko'chalar soni ortib borayotir.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi Rishton tumanida ham keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari hududlaridagi ichki yo'llar ham ta'mirlanib, shag'allashtirilgan ko'chalar soni ortib bormoqda.

2022-08-12 05:56:06